

## Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi

Iroda Hidoyatova

Muslima Hasanova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkebt davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyani qanday shakllantirish va rivojlantirish borasida so'z boradi. Hozirgi kunda jamiyatimizdagi oilalarning ahvoli hamda qanday kamchiliklar bor? Va, nimalar qilinsa oilalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish mumkin, farzandlarimizda esa yaxshi odatlarni qanday rivojlantirish mumkin? Ushbu maqolada shu to'g'risida so'z boradi hamda turli psixologik qarashlar bilan o'rtoqlashamiz.

**Kalit so'zlar:** oila, farzand, tarbiya, mакtab, odob qoidalari, oilaviy muhit

## The issue of spiritual and moral education in the family

Iroda Hidoyatova

Muslima Hasanova

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after  
Alisher Navoi

**Abstract:** This article talks about how to form and develop spiritual and moral education in the family. What is the current state of families in our society and what are the shortcomings? And what can be done to form spiritual and moral education in families, and how to develop good habits in our children? This article will talk about it and share various psychological views.

**Keywords:** family, child, education, school, rules of etiquette, family environment

Oilada ma'naviy - axloqiy tarbiya bu bolalarga ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni o'rgatish va rivojlantirish jarayonidir. Bu bolalarda halolik, hurmat, mas'uliyat, hamdardlik kabi ijobiy qadriyatlarni yoshligidan sindirish va izchil modellashtirish va mustahkamlash orqali bu qadriyatlarni mustahkamlashni o'z ichiga oladi. Oila bolaning axloqiy va ma'naviy rivojlanishini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki ota onalar tarbiyalovchi va qo'llab quvvatlovchi muhitni ta'minlash, aniq taxminlar va chegaralarni ta'minlash va ijobiy xulq- atvorni modellashtirish orqali o'z farzandlariga butun hayoti davomida ularni boshqaradigan kuchli ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga yordam berishlari mumkin. Oilada ma'naviy va axloqiy

tarbiyaning ahamiyati uning ijobjiy ijtimoiy bahsiy rivojlanishiga yordam berish, sog'lom munosabatlarni rivojlantirish, shaxs va butun jamiyatning umumiy farovonligiga hissa qo'shish qobiliyatidadir.

Oilada axloqiy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yilgandagina shaxsga xos quyidagi salbiy odatlar: odobsizlik, mamamlik, kibrilik, ko'ngli qoralik, dangasalik, maxtanchoqlik, xasislik, sotqinlik, chaqimchilik, xasislik, vatanfurushlik, sabrsizlik, bilimsizlik, e'tiqodsizlik,adolatsizlik, yolg'onchilik, qahri qattiqlik, berahmlik, kattalarni hurmat qilmaslik, kichiklarga izzat ko'rsatmaslik, intizomsizlik kabi axloqiy sifatlarni shakllanishining oldi olinishiga erishiladi.

Oila tarbiyasi bu yuqarida ta'kidlab o'tilganidek, ota onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarini har tomonlama yetuk, sog'lom, bilimli etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Shaxs shakllanishiga ta'sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosga ega oila jamiyatning ajralmas bo'lagi sifatida ijtimoiy vazifalari bajarish bilan birga o'ziga xos xususiyatlarni ham akslantiradiki, bunday xislat psixologik qarama-qarshilik hamda xarakterlar to'qnashuvidan iborat ijtimoiy munosabatlardan toliqqan inson organizmining ishchalik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur bo'lgan motadil iqlimni hosil qila oladi. Bu tuyg'u xalqimiz ruhiyatidagi o'ziga xos xususiyatlardan biridir.

Oila jamiyat ijtimoiy tuzumning birlamchi bo'g'ini bo'lib, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila- murakkab ijtimoy guruh. U biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi, shu sababli oilalar birlashib jamiyatni tashkil etadi.

"Oila - kishilarning qon - qarindoshlik, mulk va manfaat umumiyligi va talab-ehtiyojlarini birgalikda qondirishga asoslangan, maqsadi yagona bo'lgan majmua. Ya'ni mikroijtimoy tuzilmadir" - deb ta'kidlaydi o'zbekistonlik olim A.O.'Imasov.

Ma'lumki, aniq bir manzilga qaratilgan har qanday faoliyat o'z samarisini beradi, shuning uchun muayyan ijtimoiy - pedagogik yordamiga muhtoj oilalarni ijtimoiy pedagogik tashxis asosida aniqlab, ularga real yordam ko'rsatish, ya'ni oilada vaeologik sog'lom turmush tarzini shakllantirish va bolalarga to'g'ri tarbiya berish maqsadga muvofiqdir. Oila tarbiyasida aynan oila diagnostikasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir oilaning ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularga ijtimoiy- pedagogic yordam berishda maxsus amaliy ishlar muhim ahamiyatga ega.

Oilada sog'lom turmush tarzini barqarorlashtirish bo'yicha amaliy ish quyidagicha amalga oshiriladi:

- Maqsadni belgilash, ya'ni oiladagi erishilgan yutuqlarni aniqlab, ularga suyangan holda ota-onalarning har qanday imkoniyatlarga ega ekanliklarini hamda qanday yordamga muhtoj ekanligini belgilash;

- Harakatlar olgaritmi, ya’ni ota-onalarv orasida oila tashxisini o‘rnatishga doir anketalar tarqatish, ularga javoblar olish, tahlil etish ularning tavsifiga ko‘ra, ota-onalarni kichik guruhlarga ajratish va tashxis natijalari bilan tanishtirish kabi faoliyatdir;

- Diagnostika asosida pedagogic konsiliumlarni tashkil etish, psixologik xizmatni amalga oshirish rejalarini tuzish ishlari amalga oshiriladi.

Bu oilaviy tarbiyaning o‘ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-onsa, qon-qarindoshlik, avlod-ajdod xislatlarini uzatadi, uning davomiyligini saqlaydi, farzandni shaxs sifatida shakllantiradi, hayotga tayyorlaydi.

O‘quv maskanlarida beriladigan ta’lim-tarbiya darajasi bilan o‘quvchi - talaba shaxsining oilaviy turmush tarzi orasidagi aloqadorlikning pedagogic jihatdan ta’munlanganligi hamda ta’lim oluvchilarning yutuqlari, ularda shaxsiy sifatlarning tarkib topib borishini jadallashtiradi.

Yoshlarning xulqida uchraydigan nuqsonlar: agressivlik, huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olishda o‘quv maskanlarida beriladigan ta’lim-tarbiyaning ta’sirini oshirish yo’llarini tadbiq etishda oila diagnostikasining muhim ahamiyati mavjud.

Pedagogika va psixalogiya fanlarida ota-onalar bilan ish olib borishga doir turli xil yondashuvlar mavjud. Bularidan K.Leongard, Myunstenberg, Dembo-Rubinshteyn, E.Klimov, I.Gribennikov, A.Q.Munnavarov, M.Qur’onov, O.Musurmonova, L.Mahmudovalar tomonidan yosh va pedagogic psixalogiyaga asoslangan holda ota-onalarga holda yaratilgan ma’rifiy-axborotli yondashuvlardir.

Hammamizga ma’lumki, insonning taqdiri, kelajak hayotidagi yutuqlari

Yoki muvaffaqiyatsizligi, baxtli yoki baxtsizligi hattoki kayfiyati, uning oilaviy muhiti bilan bog‘liqidir. Albatta, oilaning taqdiri esa insonning o‘ziga bog‘liq. Jamiatning ma’naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog‘liqligi azaliy haqiqatdir. Negaki, oila jamiatning ijtimoiy-ma’naviy bo‘g‘ini kichik bir vakili bo‘lib, aynan oila zaminida xalqimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Agar oilada tartib-intizom bo‘lsa, uning a’zolari shu xislatlarini xizmat jarayoniga ko‘chiradi va ijtimoiy mehnat faoliyatlarida qo‘llaydilar. Bu esa, ularning o‘z xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishlariga sabab bo‘ladi.

Shu o‘rinda aytish joizki, haqiqiy oila bu axloq, xushmuomalalik, mehnatsevarlik asosida qurilgan bo‘lishi insonlar o‘rtasidagi munosabat va muloqotlarda o‘ta muhim va shaxsning fe’l-atvori, yurish-turishida alohida kasb etadi. Agar ona o‘z farzandini Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa, bu his-tuyg‘u unga butun hayoti davomida hamroh bo‘ladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan

barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir”, - degan edi.

Axloqiy tarbiya - odam axloqini kamolga yetkazish deganidir. Ua’ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe’li va amali o‘ziga ham, boshqalarga ham foydali va mehnat keltiradigan bo‘lsin. Boshqacha aytganda odamning fe’li va harakatida yaxshi fazilatlarni tarbiyalash, kamol toptirish deganidir.

A.Fitrat o‘zining “Oila” asarida farzand tarbiyasida badan tarbiya, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiyaning o‘rni muhimligini ta’kidlaydi. Mazkur uchta tarbiyaning eng muhimi axloqiy tarbiya hisoblanadi. O‘zingiz xohlaganingizcha bolangizning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lishingiz mumkin va qo‘lingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling.Lekin axloqiy tarbiya talab darajasida bo‘lmasa, aqliy va jismoniy kuchini o‘zi yoki atrofdagilar zarariga ishlatadi. Binobarin, bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanib ko‘p harakat qilish lozimligini ta’klidlaydi, - A.Fitrat.

A.Fitrat axloqiy tarbiyani jismoniy va aqliy tarbiyadan keyingi - uchinchi bo‘g‘in tarbiya sifatida uqtirib, u “Insonni komil, chiroyli axloq egasi, jamiyatga foydasi tegadigan a’zo qilib shakllantirish”, deb uni amalga oshirishning quyidagi tizimini taklif qiladi.

1. Bolaga turli xil turli mavzularda hikoyatlar vositasida axloq qoidalarini tushuntirish. A.Fitrat Shayx Muslibiddin Sa’diyning (XIII asr) maslagi va hikoyatlarini tavsiya qiladi, uning “Guluston” va “Bo‘ston” asarlarida kichik hikoyatlar vositasida axloq qoidalarini bayon qiladi.

2. Tarbiyachining o‘zi ibrat bo‘lishi lozimligi. Tarbiyachining so‘zi bilan xatti-harakati uyg‘un bo‘lib, u xatti-harakati bilan barchaga ibrat, o‘rnak, namuna bo‘lmog‘i lozim. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda “shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotida ibrat muhim o‘rin tutadi. Insonning xulqini, fe’l-atvorini faqat pand - nasihat, dashnom va va’z aytishlar emas, balki, munosabat va ibrat shakllantiradi”, jumladan, axloqiy ong, axloqiy xatti-harakat va axloqiy munosabat uyg‘un holda in’ikos etadi.

3. Yomonlarning yomonligini ko‘rsatib, yaxshilarning yaxshilagini uqtirib borishda muayyan ijtimoiy tuzum va muhitni hisobga olish, ya’ni axloqiy tarbiya real voqelik va amaliy jihatlari bilan ma’naviy - axloqiy muhitni muayyan darajada barqarorlashtiradi. Shunday bo‘lsa, axloqiy tarbiyani maqsadli va ongli olib borish funksionalligini ta’minalash insonda ezgu axloqni shakllantirishga asos soladi. Muayyan ma’naviy-axloqiy fazilatlarning tizimli tahlili hamiyat ma’naviy-axloqiy muhiti rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, karamlilik - saxovat, yaxshilik,, demakdir. Bu halol va pok, mehnatkash, mehribon, bo‘lish va vijdon amriga bo‘ysunib yashash demakdir. Karamlilik ma’naviy-axloqiy poklanish, nogironlarga, yetim-yesirlarga xayri-ehson, yaxshilik qilish, ularning ko‘nglini ko‘tarish, moddiy yordam berish kabi

insoniy fazilatlarni qamrab oladi. A.Fitrat uni “odamlarga yaxshilik qilib, millatni yuksaltirish”, deb tushuntiradi.

Ma’naviy-axloqiy fazilatlar zanjirining keyingi halqasini sabotlilik fazilati tashkil etadi. U - ulug‘ maqsadga yetishish uchun qat’iy harakatdir.

Farzandlarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani qancha erta boshlasa shuncha yaxshidir. Chunki, bolalik chog‘idan yaxshi tarbiya ko‘rgan va yaxshi muhitda ulg‘aygan bola kelajakda o‘z qarorlarini mustaqil o‘zi qabul qila oladi va xato ish qilmaydi chunki u bularning hammasini kichikligidan o‘rganib katta bo‘lgan bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida jamiyat ma’naviy-axloqiy muhitining asoslari va me’yorlasrini belgilashda falsafiy fikr - tajribalaridan unumli foydalanish lozim. Misol uchun, donishmand Arastu deydi: “Uch omil odamlarni yaxshi va ezgu hislatli qiladi: tabiat, odat va aql. Bu omillar insonda uyg‘un holda mavjud bo‘lishi kerak”. Nazarimizda, bu fikr e’tiborga loyiq. Unga ko‘ra, inson tabiatini anglashi va uning hayoti tabiat qonuniyatlariga bog‘liqligini tushunmoq lozim. U tirik mavjudot sifatida tabiatdan tashqarida yashay olmaydi va shu sabali tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishi kerak. Shuningdek, inson o‘zi mansub bo‘lgan xalqning odatlarini o‘zlashtirmasdan jamiyat a’zosi bo‘la olmaydi. U o‘z jamiyatining to‘laqonli a’zosi bo‘lishi uchun xalqining odatlari, an’analari va madaniyatini bilishi darkor.

Bu ikki narsa insonning aqli bo‘lishini taqozo qiladi. Aqli bo‘lish har bir munosabat va faoliyatda me’yor hamda tartibga rioya qilish deganidir. Shu ma’noda inson nazariy bilganlarini amaliyotga tatbiq eta olishi lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ma’naviy-axloqiy tarbiya o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi, uni shakllantirish uchun ota-onalar farzandlari bilan shug‘illanishlari va o‘zlar ham yaxshi xulq-atvorga ega bo‘lishlari shuningdek, o‘z atrof-muhitlariga befarq bo‘lmasliklari lozimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

Hamroyeva, X. A. Q. (2022). OILA TARBIYASI ASOSLARI (YOSH OILALAR MISOLIDA). Scientific progress, 3(4), 582-586.

Xolbozorova, N. X. (2021). PEDAGOGIKA INSTITUTI O’QITUVCHISI OILA MUHITINING SHAXS IJTIMOIYLASHUVIGA TA’SIRI. Экономика и социум, (12-1 (91)), 653-658.

Rashidovna, I. Z. (2023). OILADA YOSHLAR TARBIYASI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(9), 147-154.